

Boymirzayev Xurshidjon Karimjanovich,
NamDU, Tarix kafedrası dotsenti, (PhD)
E: mail. boymirzayevhurshidjon@gmail.com

**TARIX FANLARINI O'QITISHNING MAVJUD METODIK TIZIMI
SAMARADORLIGINI MODIFIKATSIYALASH TALABI NUQTAI NAZARIDAN
BAHOLASH**

Annotitsiya: Ta'lim tizimida kechayotgan tub o'zgarishlar, xorijiy va milliy pedagogikaning zamonaviy yutuqlari barcha fanlar kabi xususiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. "Tarix o'qitish metodikasi" fanini takomillashtirish OTMDA tarix fanlari bo'yicha darslarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada "O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fani bo'yicha talabalar tomonidan tarix fanlari bo'yicha bilimlarni puxta o'zlashtirish imkonini beradigan innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalarini tanlash, ularni boyitishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim muhiti, innovatsion ta'lim muhiti, o'qitish, tarix o'qitish, tarix o'qitish metodikasi, tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish.

Хуршидjon Боймирзаев Каримжанович,
НамГУ, доцент кафедры истории, (PhD).

**ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ
ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ НЕОБХОДИМОСТИ
МОДИФИКАЦИИ**

Аннотация: Коренные изменения в системе образования, современные достижения зарубежной и отечественной педагогики вызывают необходимость совершенствования методики преподавания частных предметов, как и по всем дисциплинам. Совершенствование дисциплины "Методика преподавания истории" будет служить повышению эффективности уроков истории в вузах. В статье особое внимание уделяется выбору и обогащению инновационных форм, методов, инструментов и технологий, позволяющих досконально овладеть историческими знаниями по дисциплине "История государственности в Узбекистане".

Ключевые слова: образовательная среда, инновационная среда обучения, преподавание, преподавание истории, методика преподавания истории, совершенствование методики преподавания истории.

Khurshidjon Boymirzaev Karimjanovich,
NamSU, Associate Professor, Department of History, (PhD).

**ASSESSMENT OF THE EFFICIENCY OF THE CURRENT METHODOLOGICAL
SYSTEM OF HISTORY TEACHING FROM THE POINT OF VIEW OF THE
REQUIREMENT OF MODIFICATION**

Annotatsiya: Fundamental changes in the education system, modern achievements of foreign and country's pedagogy make it necessary to improve the methodology of teaching private subjects as in all disciplines. Improving the discipline "Methodology of teaching history" will serve to increase the effectiveness of history lessons in universities. The article pays special attention to the selection and enrichment of innovative forms, methods, tools and technologies that allow thoroughly mastering the historical knowledge of the discipline "History of statehood in Uzbekistan".

Keywords: educational environment, innovative learning environment, teaching, teaching history, methodology of teaching history, improvement of methodology of teaching history.

Kirish. Inson kapitalidan samarali, unumli va maqsadli foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda jahon miqyosida iqtidorli shaxslarni aniqlash, ularning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish tendensiyasi shakllangan. Zero, demografiya, tabiiy resurslar tanqisligi tobora dolzarblashayotgan bir vaqtda progressiv yondashuv insoniyat taraqqiyoti, milliy rivojlanishni belgilovchi omil inson kapitali ekanligini ko'rsamoqda.

“Sifatli ta'lim – malakali mutaxassis – milliy taraqqiyot” formulasi ixtiyoriy olingan jamiyat ijtimoiy dialektikasining muhim asosidir. SHunga ko'ra, etakchi davlatlarda ta'lim tizimi bo'yicha o'zining istiqbolli rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, unda sohada inqilobiy o'zgarishlarni kafolatlovchi yo'nalishlar, muhim g'oyalar, ustuvor tamoyillar belgilab berilgan. Zamonaviy mehnat bozorining mavjud ehtiyoji o'zida ana shunday intellektni namoyon etadigan mutaxassislarga ega bo'lishdir. SHu bois jamiyat uzluksiz ta'lim tizimi oldiga uning barcha bosqichlarida mustaqil, erkin, tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega shaxs – bo'lajak mutaxassisni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda.

Muammoning qo'yilishi. O'.M.Asqarova, M.H.Usmonboeva “metodika” atamasining ma'nosini anglash uchun uning etimologiyasiga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb topadi. Ular tomonidan e'tirof qilinishicha, yunon tilida “ika” (eka, tika, dika, teka) qo'shimchasi “ombor”, “to'plam”, “yig'indi”, “jamlanma” ma'nosini anglatadi. Masalan: Biblioteka – “Bibliya”lar to'plami (yig'indisi); audioteka – audio yozuvlar to'plami (yig'indisi); videoteka – video lavhalar to'plami (yig'indisi); apteka – retsept bo'yicha tayyorlanadigan dorilar ombori, to'plami (yig'indisi); diskoteka – disk (aylana, doira)lar to'plami (yig'indisi). SHunga ko'ra lug'aviy jihatdan olganda “metodika” tushunchasi “metodlar to'plami, jamlanmasi” ma'nosini anglatadi. Biroq, nazariy jihatdan metodika faqat ma'lum faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladigan metodlar yig'indisiningina anglatib qolmay, balki, shakl, metod, vosita va usullar yig'indisi, jamlanmasini ifodalaydi [4, 17].

M.T.Studenikina “metodika o'qitish va uning tashkil etish jarayonini takomillashtirish, shuningdek, o'qitishda samarali bo'lgan asosiy omillarni aniqlash” [5, 4] ekanligiga e'tiborni qaratadi.

Bu o'rinda aytish mumkinki, mualliflarning fikri to'g'ri. Darhaqiqat, metodika bevosita ma'lum harakatni bajarishda samarali deb topilgan shakl, metod, vosita, usul, shuningdek, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda texnologiyalar majmuidan tarkib topadi.

Asosiy tayanch tushunchani shunday ta'riflash mumkin: **tarix (yoki tarix fanlarini) o'qitish metodikasi** – talabalarni ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritishga kognitiv, empirik va psixologik jihatdan tayyorlash, ularda metodik kompetensiyani rivojlantirish, tarix fanlarini o'qitishning sifat va samaradorligini ta'minlovchi o'quv fani. Ushbu fan mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, tarix fani o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan kompetentlik sifatleri – kasbiy bilimdonlik, tarixiy jarayonlarga xolis baho berish; tarixiy materiallar (qo'lyozmalar, arxiv materiallari, me'yoriy hujjatlar, memuar asarlar, solnoma (yilnoma)lar, tarixiy mavzudagi monografik asarlar va ilmiy maqolalar, “xalq arxivi”, “og'zaki tarix”) hamda o'qitish vositalari (o'quv adabiyotlari, turli tarixiy davrlarga oid xaritalar, tarixiy atamalar lug'atlari, muzey eksponatlari, arxeologik buyumlar, milliy-madaniy yodgorliklar)

bilan ishlay olish; tahlil va sintez qilish qobiliyati, tanqidiy tafakkur, kuchli xotira, axborot madaniyati, huquqiy ong va professional obro'ga egalik; izlanuvchanlik, kreativlik; ijtimoiy faollik; kasbiy vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot uslubi. Tadqiqot olib borishda umumilmiy metod va usullaridan: kuzatish, qiyoslash, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, eksperimental natijalarni o'rganish, umumlashtirish, yangi pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya, interfaol metodlar, ta'lim modeli, ta'lim, kreativlik, kreativ pedagog, ijodkorlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim texnologiyalari va boshqalardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tarix o'qitish metodikasi fanining mazmunida zamonaviy pedagogik tamoyillarning ustuvorligi ta'minlanadi. Ushbu tamoyillar asosida talabalarni innovatsion, muammoli, interfaol, loyiha, masofaviy, kompyuter, dasturiy, modul, hamkorlik, individual, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan va mustaqil ta'lim turlari, o'yin texnologiyasi, shuningdek, ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishtirish orqali ularda amaliy va ilmiy tadqiqotlarni olib borish, ijodiy loyihalarni amalga oshirish malakalarini rivojlantiradi.

Ma'lumki, har bir o'quv fani aniq maqsadni ko'zlaydi. Maqsad negizida fanning kognitiv, didaktik va empirik imkoniyatini baholash mumkin bo'ladi. SHu nuqtai nazardan tarix (yoki tarix fanlari)ni o'qitish metodikasi ham aniq maqsadga erishishga xizmat qiladi.

Tarix o'qitish metodikasi fani o'zida talabalarni tarix fanlarini samarali o'qitishning ustuvor tamoyillari, samarali shakl, metod, vosita va texnologiyalari bilan tanishtirish orqali pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda ularda kasbiy kompetentlik sifatlarini tarbiyalash **maqsadini** ifodalaydi.

Mazkur maqsad negizida muayyan **ta'limiy vazifalar** hal qilinadi. Ular: tarix darslarining qiziqarli, samarali bo'lishi uchun innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalarni aniqlash; mashg'ulotning mavzusi, xarakteri, talabalarining o'quv-bilish faolligi darajasi, kichik guruhlarda ishlash tajribasiga tayangan holda o'quv materiallarini tanlash; tahlillash va sintezlash asosida o'quv materiallarini boyitish; mavjud o'quv materiallariga tayangan holda metodik ta'minotni shakllantirish; shakllantirilgan metodik ta'minot yordamida darslarning sifatli bo'lishiga erishish; talabalarda kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish; o'zlashtirganlik darajasini tashxislash va baholash.

Nazariy o'rganish tarix fanlarini samarali **o'qitish yo'llari** quyidagilar ekanini ko'rsatdi: ta'lim muassasasi, xususan, tarix fakultetining o'quv-moddiy asosini mustahkamlash; o'quv auditoriyalarini zamonaviy texnika, innovatsion texnologiyalar bilan jihozlash; ta'lim jarayoniga malakali, mahoratli, kompetentli va kreativ fikrlovchi pedagoglarni jalb qilish; puxta asoslangan metodik ta'minotni shakllantirish; talabalarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatni rivojlantirish; pedagog va talabalar o'rtasida ijodiy hamkorlikni qaror toptirish; o'quv jarayonida tarixiy bilimlar targ'ibotchisi bo'lgan muassasalar – muzeylar, tarixiy-madaniy yodgorliklar, tarixiy ahamiyatga ega manzil va ob'ektlar faoliyatidan o'rinli, maqsadli foydalanish; tarix fakultetlari talabalarini faol ravishda arxeologik qazilmalar, tarixiy-madaniy ekspeditsiyalar, muzeylar, arxivlar, turistik agentliklar

va firmalar ishiga jalb qilgan holda ularda volontyor yoki xodim sifatida faoliyati ko'rsatishlari uchun sharoit yaratish.

Talabalarni turistik agentliklar va firmalar ishiga jalb qilishda turizm faoliyatining tarixiy, me'moriy (diqqatga sazovor joylar nuqtai nazaridan), madaniy-tarixiy meros (madaniy resurslardan foydalanishga ko'ra), tarixiy-inqilobiy, qahramonlik-vatanparvarlik, harbiy-tarixiy, arxivshunoslik, tabiiy-tarixiy (faoliyat yo'nalishining tematikasi bo'yicha) yo'nalishlarida bo'lishga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni tanlangan. SHundan kelib chiqqan holda "innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish" tushunchasini ham nazariy tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Muammoni nazariy va amaliy o'rganish natijalariga tayangan holda tushunchani shunday tavsiflash mumkin: ***innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish*** – tizimda kechayotgan tub o'zgarishlar, xorijiy va milliy pedagogikaning zamonaviy yutuqlarini inobatga olgan holda OTMda tarix fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining sifatli, samarali tashkil etilishini ta'minlovchi metodik ta'minotni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat natijasi.

Innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'qitishning samarali kechishiga yordam beradigan innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalarini tanlash, ularni boyitish ***maqsadi*** ko'zlanadi.

Ushbu maqsadga ko'ra tarix darslarini qiziqarli, jonli, samarali o'qitishni ta'minlovchi quyidagi vazifalar belgilandi: ta'lim shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini tanlash; ular yordamida didaktik ishlanmalarni tayyorlash asosida metodik ta'minotni shakllantirish; shakllantirilgan metodik ta'minotni o'quv amaliyotiga joriy qilish; amaliyotga tatbiq qilingan metodik ta'minot yordamida talabalarning o'zlashtirganlik darajasini tashxislash va baholash.

Asoslovchi tajriba davrida tanlangan muammoni nazariy tahlil qilish, talabalarning o'quv-bilish, pedagoglarning kasbiy faoliyati bilan tanishish orqali mavjud sharoitda aynan interfaol metodlar hamda kompyuter dasturlari tarix o'qitish samaradorligini ta'minlay olishiga ishonch hosil qilindi. SHu bois tarix o'qitish sifati hamda samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida interfaol metodlar hamda kompyuter dasturlari tanlandi.

Tadqiqot davrida o'quv mashg'ulotlari axborot-ma'ruza, muammoli va vizual ma'ruza; seminar mashg'ulotlarning seminar-suhbat, ma'ruza va referatlarni tinglash, muhokama qilishga asoslangan seminar, aralash seminar (ma'ruza va muhokama), seminar-munozara, tarixiy manbalar bilan tanishish va ularni sharhlashga asoslangan seminar, didaktik topshiriq va o'quv keyslarni echishga asoslangan seminar, ilmiy tadqiqotlarning natijalarini o'rganishga asoslangan seminar, seminar-ekskursiya; amaliy mashg'ulotlarning didaktik, didaktik o'yinlariga asoslangan amaliy mashg'ulot, tahliliy xarakterdagi topshiriqlarni bajarishga va nostandart testlar echishga asoslangan mashg'ulot kabi shakllarda tashkil etildi.

Ma'lumki, talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi seminar va amaliy mashg'ulotlarda aniqlanadi. SHu bilan birga talabalar tomonidan "O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fani o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholashda nazorat ishlari

ham alohida o'rin tutadi. SHu sababli tadqiqot davrida nazorat ishlarining shaklini tanlashga ham e'tibor qaratildi. Respondent-talabalarni didaktik o'yin topshiriqlarni bajarish, tarixiy atamalar lug'atini tuzish, o'quv keyslarini echish, talaba so'rovini, loyiha taqdimotini, tarixiy ma'lumotlarni yodda samarali saqlashga oid ko'rsatma (estalik)ni va ekspert mulohazasini tayyorlash, muayyan mavzularda morfologik, konseptual va toifalovchi jadval, idrok xaritasi, klaster, sintezlovchi diagramma, qiyoslovchi jadvallarni tuzish, tarixiy xaritalarni o'zaro taqqoslash, nostandart testlarni echish kabi o'quv topshiriqlarini bajarishga jalb qilishda kutilgan natijaga erishildi.

Tarix fanlarini o'qitishda samarali metodlar sifatida interfaol, jumladan, "Barcha omillarni hisobga ol!" (BOHO) [7, 26], "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (BBB) [7, 38], "Blits-so'rov" [7, 42], "Toifalash" [7, 138], "Morfologik quti", "Idrok xaritasi" ("Mental xarita") [1, 125] metodlari tanlanib, ulardan maqsadli foydalanildi. SHu bilan birga dissertant tomonidan ilmiy ishlanma sifatida "Vizual xronotop" [2, 49-50], "Tezis-organayzer" [2, 56] asoslandi.

Tadqiqotni olib borishda tarix o'qitish metodikasi fani bo'yicha ta'limni tashkil etishda samarali bo'lgan vositalar ham aniqlandi. Ular quyidagilardir: kompyuter qurilmasi, kompyuter dasturlari (Power Point, Hot Potatoes, MyTestXPro), interfaol doska, diaproskop, televizor, Internet tarmog'i, mobil telefon, Telegram ijtimoiy tarmog'i, tarixiy bilimlar targ'ibotchisi bo'lgan muassasalar – muzeylar, tarixiy-madaniy yodgorliklar, tarixiy ahamiyatga ega manzil va ob'ektlar faoliyati.

"Keys-stadi" [7, 72] va o'yin texnologiyalari (didaktik o'yinlar) [8, 10-11] tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan texnologiyalar sifatida tanlandi.

Talabalarining "O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fanini o'zlashtirish ko'rsatkichlari T.N. Glazyrina [3, 80]ning yondashuviga tayangan holda kognitiv, empirik-operatsion hamda qadriyatli-refleksiv mezonlar bilan baholandi. Daraja ko'rsatkichlari esa B.Blum taksonomiyasi [Takson] bo'yicha yuqori (tahlil qilish, sintezlash, baholash), o'rta (anglash, qo'llash) va past (bilish) tarzda belgilandi.

O'z xususiyatiga ko'ra tarix fanlari avtonom holda rivojlana olmaydi. Ular adabiyot, san'at, geografiya, etnografiya, etnopedagogika, arxeologiya, jamiyatshunoslik, dinshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa o'nlab sohalar bilan o'zaro aloqadorlik va birlikda rivojlanadi. Umuman olganda har bir sohaning o'z shakllanish va rivojlanish tarixi mavjud bo'lib, uni o'rganishda tarixiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Demak, OTMda "Tarix o'qitish metodikasi" fani talabalarni tarix fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish yo'llari xususidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan tanishtiradi. Ushbu fan asoslarini puxta o'zlashtirish orqali talabalar samarali ravishda kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlanadi. Mutaxassislarning kasbiy kompetenligiga nisbatan talablar kuchayayotgan mavjud sharoitda ta'limiy o'zgarishlarning davriy xarakteri "Tarix o'qitish metodikasi" fanini mazmunan takomillashtirishni taqozo qiladi. Fanning mazmunan takomillashtirilishi nazariy ma'lumotlarni boyitish, o'qitishga nisbatan yangi metodik yondashuvni qaror toptirishni taqozo qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Алибоев Т.Ч. Инновацион таълим муҳитида ўқувчиларда креативлик сифатларини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш (“Технология” фани мисолида): Пед.фанл.бўйича фалс.докт. (DPh) ... дис. – Т.: 2020. – 125-б.
2. Боймирзаев Х. Тарих ўқитиш методикаси: назарий моҳияти ва амалий асослари (“Ўзбекистонда давлатчилик тарихи” фани мисолида). – Наманган: НамДУ нашриёти, 2021. – 49-56-б.
3. Глазырина Т.Н. Методика преподавания истории / Учеб.-мет. комплекс для студентов специальности 1-210301 “История”. – Новополюцк: ПГУ, 2011. – С. 5.
4. Педагогика. Қисқача изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова. – Наманган: Наманган ДУ, 2014. – 311-б.
5. Студеникина М.Т. Методика преподавания истории в школе / Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. — М.: 2008. – С. 4.
6. Таксономия педагогических целей Б.Блума // http://wiki.tgl.net.ru/index.php/Таксономия_педагогических_целей_Б.Блума.
5. Усмонбоева М., Арипова М., Мўминова Д. Таълим жараёнида интерфаол методлардан фойдаланиш. – Т.: “Lesson Press” нашриёти, 2019. – 5-8-б.
6. Usmonboyeva M., Ahrorova Z. Ta’lim jarayonida didaktik o’yinlaridan foydalanish. – Т.: “Lesson Pres” nashriyoti, 2019. – 10-11-б.